

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-11/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i> <i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i> <i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,</i> <i>т.ф.д., проф.</i> <i>Аззамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i> <i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i> <i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i> <i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i> <i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i> <i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i> <i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i> <i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i> <i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i> <i>Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i> <i>Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i> <i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i> <i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i> <i>Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc</i> <i>Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.</i> <i>Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i> <i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i> <i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i> <i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i> <i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i> <i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i> <i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i> <i>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.</i> <i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i> <i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,</i> <i>проф.</i> <i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i> <i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i> <i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i> <i>Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.</i> <i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.</i> <i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i> <i>Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i> <i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,</i> <i>б.ф.д., академик</i> <i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i> <i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i> <i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i> <i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i> <i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i> <i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i> <i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i> <i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i> <i>Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i> <i>Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i> <i>Худойбергана Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.</i>
--	---

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№11/4 (108), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 248 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdullaeva R., Marufova Yu.A., Mukhammadjonova M.D. Comparative Analysis of Phraseological Units with a Human Component in English, Russian, and Uzbek Languages: A Structural-semantic Perspective	5
Ahmadjonova O.A. Rahbar obrazining badiiy tasviri	8
Akbaraliyeva X.Sh. O'zbek va ingliz maqollarida tana a'zolarining ishlatilishi	11
Alimov P. Adabiyotda badiiy obraz va xarakter	14
Aliyeva S.A. Geortonimlarning jahon tilshunosligida o'rganilishi va nazariy masalalari	17
Aminova D. Phenomenon of polysemy in english military vocabulary	19
Aminova D. Systematization of military terminology	20
Bazarova X.E. Asqar Mahkam ruboiylari	22
Bobojonova X.K. O'zbek tilidagi o'zlashmalarning ayrim xususiyatlari	26
Boltaboyeva N.M. Toponimik leksikografiya tilning leksik-semantik tizimining muhim yo'nalishlari sifatida	29
Boltayeva G.Sh. Muxammas janri genezisida xalq og'zaki ijodining o'rni	32
Boltayeva G.Sh. Tab'i xud muxammaslarda poetik shakl masalasi	34
Dalieva M.X. Conceptual analysis of polysemy in terminology	37
Dalieva M.X. Distinguishing features of terminologization in modern english	39
Dalieva M.X. Polysemy in terminology	41
Djalilova Z.B., Yuldashova N.O. Badiiy adabiyotlarda realiyalar va ularning tarjima qilish usullari	43
Egamnazarova Z.X. Rieltorlik faoliyatiga oid terminlarning bir tilli lug'atlarda berilishi masalalari	47
Jumaniyozov Sh. Uzlusiz ta'lim tizimi adabiyot darslarida badiiy asar tahlilining muhim jihati	50
G'afforov A. Yassaviy ijodida tasavvufiy istiloh (atama)larning qo'llanilishi	53
Ganiyeva O.X. AQSH hikoyachiligi negizlari	56
Gavharoy Isroiljon qizi Turizm terminlaridan muloqot diskursida foydalanishdagi muammo va yechimlar	59
Hakimova Z.T. Lexicographic Aspects of Sewing Terms: A Stitch in Language	62
Ibragimova M.A. Nutqiy aktlar nazariyasi va yozma nutq atamasiga doir	64
Israilova M.N. The role and significance of the science of latin and medical terminology in medicine	68
Kilichev B.E. Buxoro viloyatining gidrotoponimlari	70
Kuchkarov T.O., Parmonova N.A. "Treasure", "Xazina" tushunchalarining milliy-madaniy tipologik xususiyatlari	74
Latipov A.A. O'zbek tilida yakuniy faza semantikasi va uning ifodalanishi	77
Madraximova R.Sh. Ingliz tilida ma'danlarga aloqador onomastik birliklarning semantikasi va etimologiyasi	81
Mamatqulova Sh. O'zbek va ingliz tillarida fidoyilik konseptini ifodalovchi leksemalar	83
Masharipov J.A. Fan va texnika terminlarini standartlashtirishga qo'yiladigan talablar	86
Muhammadiyev A. Tarix va zamon haqiqatlarining she'riyatdagi talqini	88
Mustafoeva S.Kh. Semantic and structural grouping of riddles in english	95
Nazarova S. Ingliz va o'zbek tillarida politaksemalarning semantik turlari qiyosiy tahlili	98
Omonov T. Terminology and its effect on scientific and technical communication	100
Omonov T. The semantic features of insurance terms in english	103
Pirnazarova M. Shoir ijodida tun timsoli	105
Qahharova D.A. Bobur lirikasida ko'ngil timsoli va badiiy san'atlar	109
Qodirova Sh.B. Nemis tilida tabiat hodisalarini ifodalovchi otlarning leksik-semantik xususiyatlari	114
Radjabova G. A corpus-based analysis of logical connectors in academic writing	116
Raximova G.Yu. Reduplikatsiya faol lingvistik jarayon sifatida	118
Sabirova D. Erkin A'zamning "Shovqin" romanida polifonik nutq ko'rinishi	121
Sadullayev F.B. Badiiy adabiyotda ruhiy tasvir va uning takomili	124
Safoeva S.N. Badiiy tarjima kommunikativ faoliyat turi sifatida	126
Sapayeva B.Q. Birikma shaklidagi gemeronimlarning ko'rinishlari	128
Satibaldiev E. The interplay of language dominance, cultural nuances, and domain expertise in translation quality	132
Satibaldieva N. The dynamic evolution of language	134
Sattarov F. Ingliz tilidagi bolalar adabiyotining yangi bosqichga chiqishi	136

Thus, for instance, with each of the meanings of the term "bolt" we find combined certain groups of semantically related attributes. In the meaning "a manual lock" (Russian "замок") the word "bolt" is often combined with attributes which indicate the principles of mechanical functioning: foot bolt, head bolt, lever-operated bolt, chain-pull operated bolt, sliding bolt, spring bolt. These attributes never occur with the other meaning of the word "bolt" in the meaning "fastener".

The same term meaning "a fastener" is combined with attributes which never occur with "bolt" meaning "замок". Thus, rib bolt, turned bolt, unfinished bolt, hook bolt, hex-head bolt. It also means "fastener" in the case of: machine bolt, roofing bolt, flange bolt, anchor bolt, toggle bolt.

When the term "cable" means "a conductor" it is usually combined with attributes the semantics of which is connected with measures taken to prevent accidents: insulated cable, sheathed cable, shielded cable, armoured cable, buried cable or with the purposes to which a cable is put as a conductor: aerial transmission cable, communication cable, control cable, heating cable, power cable, welding cable. When the same word "cable" i.e. used in the meaning "a tension member" it is combined with attributes characterizing its state: strained cable, stiff cable.

When the term "vault" means "an arched structure" its attributes usually explain the architectural shape of the form of the vaults: barrel vault, domical vault, fan vault, ribbed vault, but when use in the meaning "an enclosed space, intended for the safekeeping" it is combined with attributes which explain the purpose for which it is used: safety deposit vault, transformer vault, walk-in-vault (a security room), or its disposition: basement vault, sidewalk vault.

These examples show that the meaning of the term affects the meaning of the attributes with which it is combined. It follows that when we come across a compound term like "a chain-pull bolt" or "a lever-operated bolt" we see that the compound adjectives "chain-pull" and "lever-operated" are combined only with the word "bolt" meaning "a lock".

Although ideally, a term should be completely different from a word of the general language in that it should only have one meaning, which should be in one-to-one correspondence with a clear scientific definition, in actual fact historically and traditionally polysemantic terms occur not at all infrequently in most terminologies. In contrast with the specialist the linguist can study terminology from this point of view, can investigate the semantic structure of his material only by applying a sufficiently rigid linguistic methodology, which, to the knowledge of the present writers, should and actually is in this country mainly based on the principles laid down in Vinogradov's well-known theory of lexical semantics.

REFERENCES:

1. Levitsky, V.M. (2009), Terminovedenie: predmet, metody, struktura [Terminology: subject, methods, structure], 4th ed., Publishing house «LIBROKOM», Moscow, RUS.
2. Kiseleva, S.V. (2010), "Cognitive aspects of a polysemantic word", Cognitive studies of language, vol. 6, pp. 306-308.

UO'K 808.5

BADIIY ADABIYOTLARDA REALIYALAR VA ULARNING TARJIMA QILISH USULLARI

Z.B.Djalilova, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

N.O.Yuldashova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Badiiy adabiyotlarda milliylikni eng muhim jihatini ifodalaydigan realiyalarni tarjima qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa badiiy asarlardagi realiyalarni xorijiy tillarga, jumladan o'zbek tilidan ingliz tiliga o'girishda qo'llaniladigan usullarni tahlil etishning muhimligi mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.*

Kalit so'zlar: *tarjimashunoslik, realiya, transkriptsiya, transliteratsiya, kalkalash, izohlash, tushuntirish, sharhlash.*

Аннотация. *Трансляция реалий, выражающих важнейшую сторону народности в литературе является важным. Особенно важность анализа методов, используемых при переводе произведений искусства на иностранные языки, в том числе с узбекского на английский, определяет актуальность данной статьи*

Ключевые слова: перевод, реалия, транскрипция, транслитерация, интерпретация, объяснение.

Abstract. In literature, the problems of translating realias, which are the most important aspect of nationality, acquire special importance. In particular, the relevance of this article is determined by the significance of translating the realias of fiction into foreign languages, including Uzbek, into English and analyses the methods of translation in literature.

Keywords: translation, realia, transcription, transliteration, interpretation, explanation.

Kirish. Badiiy adabiyotlarda, badiiy asarlarda realiyalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish xususiyatlari borasida bir qator tadqiqotlar yaratilgan. Realialarni tilshunos olimlar turli sohalar va turli nuqtai nazarlar orqali o'rganishgan. Bular jumlasidan tilshunoslik asnosida o'rgangan va ilmiy ta'riflar bergan tilshunos olimlardan O.S. Axmanova, madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan olimlar V.V.Vereshagin va V.G.Kostomarovlar hamda realiya-frazeologik izlanishlar olib borgan A.V.Kuninlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Tarjimashunoslik sohasi asosida ilmiy tahlil etgan bolgar olimlari S.Vlaxov, S.Florinlarning olib borgan ishlari alohida ahamiyatga egadir. Rus olimlaridan V.G.Chernovning ishlari realialarni rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda muhim hisoblanadi. Realialarni boshqa lingvokulturalogik til birliklaridan farqli tomonlarini ko'rsatib berishda ayniqsa rus olimlari L.I.Sapogova hamda V.A.Maslovalarning salmoqli hissa qo'shganliklarini ko'rishimiz mumkin. V.V.Vorobyev talqiniga ko'ra "Lingvokulteremalar, realiyalar xalqning o'ziga xos madaniyatini uning til birliklari orqali aks ettiruvchi lisoniy hodisalardir"[10]

O'zbek tilshunos hamda tarjimashunoslaridan G'.Salomov, N.Komilov va R.Fayzullayeva singari olimlarning ishlarida juda ko'plab fikr mulohazalar aytib o'tilgan. Yuqorida sanab o'tilgan olimlarning tahlil metodlariga nazar soladigan bo'lsak ularda realiyalarning boshqa terminlardan farqlari, ularning xususiyatlari hamda o'zga tillarga tarjima qilish usullari va muammolari o'rganilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Tarjimashunoslikda realialarni bir tildan ikkinchisiga to'g'ri tarjima qila olish muammolari hamda usullari chuqur o'rganilib kelinmoqda. Ushbu sohada har qanday tarjima tahliliga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida izohlar bildirilib o'tiladi. Bu borada Evropa tarjimashunosligida anchagina chuqur tadqiqotlar amalga oshirilganligini aytib o'tish mumkin. Bular jumlasiga ayniqsa, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, S.Vlaxov va S.Florinlarning "Tarjimada tarjima bo'lmaslik" deb nomlanuvchi kitoblari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tillardagi realiyalarda shunday so'zlar borki, ular tarjima vositasida boshqa tillarga kirib, o'zlashib ketilgan. Inglizlardagi **dollar** realiyasi o'zbeklarda **dollar** bo'lib o'zlashib ketgan. Yana shunday misolni Evropadagi **Euro** (oyro) pul birligining o'zbek tilida ham **Evro** deb o'zlashtirilishida ko'rishimiz mumkin. Bu ham aslida talaffuz qoidalari bilan bog'liq hodisa. Rus tili lug'atiga xos bo'lgan *teploxod*, *poroxod*, *velosiped* kabi transport vositalari nomlari, fransuz tilidan kirib kelgan *velosiped* so'zi ham o'zbek tiliga ham aynan holda o'zlashganligini ta'kidlash kerak. Ular bugungi kunda ham faol ishlatilib kelinmoqda.

Zamon talablari hamda ilm-fan sohalarining o'zgarishi bilan insonlarning qiziqishlari, so'zlashuv uslublari, yashash tarzlari, kiyinish madaniyati, o'zgaradi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak o'zbek ayollari o'ziga xos uzun beqasam cho'ponlar, yenglari juda keng atlas ko'ylaklar, boshlariga iroqi do'ppilar, bejirim zeb-ziynatlar taqishganlar hamda oyoqlariga esa kovushlar kiyishgan. Hozirgi kunda esa davr talabini nazarda tutgan holda bunday kiyimlar kiyish kundalik hayotda foydalanilmaydi. Faqatgina milliy urf-odatlar va marosimlar o'tkaziladigan bazmlardagina kiyilishi mumkin. Yoki o'zbek erkaklarining boshlarida do'ppi yoki sallalar, ustlarida cho'pon va yaxtaklar, oyoqlarida maxsi kalishlar kiyilgan. Hozirgi kunga kelib esa bu kiyimlar kostyum shim, yoqali ko'ylaklar, tuflilar bilan almashtirilgan. Bu liboslar umuman iste'moldan chiqib ketmagan, faqat ularning o'rnini zamonaviylari egallagan. Bunday milliy kiyimlarning nomlari (cho'pon, do'ppi, salla, atlas ko'ylak, nimcha, kavush) o'zbek millatining o'z milliyligini namoyon etuvchi realiyalar hisoblanadi. Ularsiz albatta o'zbek xalqining milliyligini tasavvur qilish qiyindir. Badiiy

adabiyotlarda ham ular butun bir o'zbek xalqining tarixi va o'tmishini ifoda eta oladi. Bularsiz albatta badiiy adabiyotlar tarixni va milliylikni tasvirlab bera olmaydi.

Ammo bunday milliy kiyimlarning, poyafzallarning, taqinchoqlarning va bosh kiyimlarning nomlarini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, tasvirlab berish katta va mashaqqatli ishdur. Qardosh tillardan qilinadigan tarjimalarda bu katta muammo tug'dirmasligi mumkin, lekin qardosh bo'lmagan tillar uchun bu hol qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bundan tashqari turli xalqlarning yashash tarzi, madaniyati, kiyimlari, bosh kiyimlari, poyafzallari o'zaro farq qiladi. Bundan kelib chiqadiki, tarjimon oldida o'zbek xalqining milliy kiyimlari, urf-odatlar, milliy taomlari, milliy musiqa asboblari, taxalluslar, shahar va qishloqlarning xususiyatlari, me'morchilik va geografik nomlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar haqidagi realialarni ingliz kitobxoniga yetkazish va ularda o'zbek xalqining milliylikiga, mintalitetiga xos bo'lgan tasavvurni hamda milliy koloritni hosil qilish muammosi paydo bo'lgan.[2]

O'zbek realialarini ingliz tiliga tarjima qilishda *transkripsiya*, *transliteratsiya*, *kalkalash* hamda muqobil variantlardan foydalanish kabi tarjima usullari samarali usullardan hisoblanadi. Bunday usullarni qo'llashda tarjimonlardan asarda muallifning mazkur realiyani ishlatishdan ko'zlagan maqsadga e'tibor berishi talab qilinadi. Badiiy asarlarda qo'llanilgan milliy xususiyatlar va realialarning ikki tilli tarjima lug'atlarini yaratish ularni tarjima qilishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda asarlarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilayotgan yoki tarjima qilishga shaylangan har bir tarjimondan bevosita yoki bilvosita o'girilayotgan asarda mujassam bo'lgan milliy ma'naviyat va millatning milliy madaniyatini tarjima tilida asliga mos tarzda yetkazib berish talab etiladi. Eng asosiysi asliyat tili xalqining milliy o'ziga xosliklarini o'zgartirmagan holda to'laligicha kitobxonga yetkazib berishdir. Shu bilan bir qatorda tarjimonning yana bir asosiy vazifasi bu asliyat asarida ijodkor tomonidan mohirona tasvirlangan milliy ma'naviyat va til madaniyatini tarjima tilida qayta yaratishdan iborat.

Agarda tarjimon millat ma'naviyati va madaniyatiga daxldor so'zlarni tarjima tilida noto'g'ri talqin etsa, asliyatdagi asar va uning muallifi hamda ana shu asar mansub bo'lgan xalq milliylikiga o'zgartirish kiritilgan hisoblanadi hamda bu asar o'quvchisi uchun tushunmovchilik yoki o'zgacha ma'lumot hamda tasavvurni olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tarjima tili xalqining milliy ma'naviyati va madaniyatiga nisbatan nojoizlik paydo bo'ladi. Turli xalqlarning va millatlarning moddiy hamda ma'naviy hayotida o'ziga xos tushunchalar ko'p uchraydi. Masalan o'zbek paranjisini nemis yoki ingliz tiliga qanday berish kerak bo'ladi.

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanining rus tilidagi tarjimasida ayrim so'zlar milliy koloritga to'g'ri kelmaydi. Masalan "*mudarris*"- "*пектор*", "*mullavachcha*"- "*студент*" deb tarjima qilinganki, bu ushbu so'zlarning asl mohiyatiga to'g'ri kelmaydi. Yoki bo'lmasam asar qahramoni Ra'noning ukase uni "*Mullatani xotini*" deganda tarjimada "*Жена ученого брата*" deb olinishi o'zini oqlamaydi, chunki u bola tilidan aytilyapti. Bunday tarjimalar o'zbek xalqining tabiatiga to'g'ri kelmasligi mumkin. [9]

Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani rus tiliga tarjima qilinganda esa ayrim o'zbek xalqi milliy realialari boshqa ma'nolarda qo'llangan va boshqacha tarzda qabul qilingan. Masalan "so'vut"- "колчуга", "dubulg'a"- "шлем", "supa"- "скамейка", "kulloh"- "шапка" "chilim"- "трубка", "yo'lak"- "туннель" kabi tarjima qilinganda milliy koloritga, asliyatga xos bo'lmagan tarjimalar vujudga kelgan. Bu asarni ingliz tiliga tarjima qilinganda ham xuddi shu milliylikka xos so'zlar asliyatini yo'qotgan holda tarjima qilingan. Masalan "supa"- "bench", "xanjar"- "knife" kabi so'zlardan foydalanilgan. Bunda milliy koloritni ifodalovchi so'zlar butunlay boshqa shaklda ishlatilgan. [2] Bunday tushunmovchiliklarning oldini olish uchun har bir tarjimon tarjimaga kirishishdan oldin asar mazmun-mohiyati hamda undan ko'zlangan maqsadni to'g'ri tushinishi undan so'nggina tarjima jarayonini amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Realialarni tarjima qilishda tilshunos olim F.Bakiyev beshta usulning qo'llanilishidagi yutuq va kamchiliklarini aytib o'tgan. O'zbek tilshunos hamda tarjimashunos olimlardan E.Ochilov esa o'zining "Tarjima nazariyasi" nomli o'quv qo'llanmasida realialarni tarjima qilishda quyidagi uch usuliga to'xtalib o'tgan va ular quyidagilar:

Transkripsiya usulida asliyat tilidagi so'zning harflarini o'zgartirish orqali tarjima tilidagi boshqa harflarga moslashtirish usuli hisoblanadi. Bunday usulni qo'llanilishi ma'lum xalq madaniyatiga xos tushunchalarning boshqa madaniyatlarga keng yoyilishini targ'ib qiladi. Ayrim bu usulni qo'llaganda ayrim kamchiliklar ham mavjud. Bunda o'quvchida o'rganilmagan, tushunarsiz so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan: "*dasturxon*", "*xurjun*", "*ko'rpacha*", "*paranji*", "*supa*" kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi.

"Give to her newly made kurpacha, let them put it around sandalwood"

(Anovi yangi qoplag'an ko'rpachalarini ber, tanchaga o'shani yopsin)

Bu gapda *ko'rpacha* o'zbek lug'atiga xos so'z bo'lib, tarjimada so'zni butunlay o'zgartirishsiz faqat harfnigina o'zgartirish orqali transkripsiya usulidan foydalanilgan.

Transliteratsiya fransuzcha "*transliteration*" so'zidan olingan bo'lib "*tarjima qilish*" ma'nosini anglatadi. Bu usulda ma'lum bir millatga xos so'zlarni grafik shakllarda aynan yetkaza olishdir. Transliteratsiya usulidan foydalanishda ma'lum bir xalq tiliga oid tushunchalarni aks ettiruvchi milliy so'zlarni tarjimada aks ettirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi hamda asliyatning milliy xususiyatlari qulay va samarali holda talqin qilinadi. Milliylikni ifoda etuvchi uy-ro'zg'or buyumlarining nomlari, kiyim-kechaklar, urf-odatlar, milliy taomlar, pul birliklari, tadbirlar va marosimlarning nomlariga xos realiyalarni ya'ni asliyatga mansub bo'lgan, ma'lum bir xalqning o'tmishini, madaniyatini, turmush shaklini ifodalaydigan tushuncha va so'zlarning badiiy asarni tarjima qilayotgan tarjimon tomonidan transliteratsiya usulida berilishi, o'sha muayyan davr, muhitning kitobxon ko'z oldida gavdalanishiga olib keladi hamda kitobxonga o'sha tarixiy jarayon haqida ma'lum bir tushuncha paydo bo'ladi.

"She laid out dastarxan, set the table and guests chatted around the xontaxta"

(*U dasturxon yozib bezadi va mehmonlar xontaxta atrofida o'tirishib suhbatlashishdi.*)[6]

Yuqorida keltirilgan misolda tarjimon transliteratsiya usulidan foydalangan bo'lib, milliy koloritni buzmaganda holda kitobxonga o'zbek xalqiga xos hozirgi kundalik hayotda ham ishlatilayotgan uy-ro'zg'or buyumlarini asliyat ma'nosini buzmaganda yetkazib bergan. Bunda *dasturxon* va *xontaxta* o'zbek madaniyati belgisini ifodalovchi realiyalar sirasiga kiradi. Dasturxon deganda mehmonlar hamda o'zaro oila a'zolari oldiga yozib, ustiga esa bor noz-ne'matlar qo'yib bezatiladigan, matodan tikilgan ro'zg'or buyumi tushuniladi. Xontaxta esa manashu dasturxon yoziladigan pastgina, atrofida esa ko'rpacha to'shaladigan stol, ya'ni bu ham uy-ro'zg'or buyumi hisoblanadi. Bunday milliy so'zlarning o'z nomi bilan berilishi millatning milliylikni buzmaganda holda asl ma'noda ma'lum davrdagi insonlar hayotini aks etish, real hayot tarzini ifodalab ko'rsatib berishdan iboratdir. Bundan tashqari badiiy adabiyotlarda ma'lum bir milliylikka xos so'zlarni ya'ni realiyalarni aynan o'sha so'z bilan tarjimasini berish qiyinchilik tug'dirishi mumkin, ya'ni o'sha so'zga aynan mos so'zlarni topishda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bunda tarjimonlar **tasviriylar tarjima** usulidan foydalanadilar. Bu usulda milliy realiyalarni tarjima qilishda ma'lum bir belgilarni tasvirlash orqali kitobxonga yetkazib beriladi.

"There was a small but really heavy iron box in the sack" [5]

(Tohir gapning ichida uncha kata bo'lmagan *po'lat sandiq* borligini sezdi)[6]

Bunda *iron box* po'lat sandiq ekanligiga ishora qilinyapti va tarjimondan shu so'zni tasvirlab berish usuli orqali asar o'quvchisiga yetkazib berishni qulay usul sifatida ko'rsatib bermoqda.

Kalkalash usuli usulidan ham tarjimada keng foydalanib kelinmoqda. Bu usulda so'z yoki so'z birikmalari harfma-harf yoki so'zma-so'z tarjima qilinadi. Bunda asosan uch usulda amalga oshiriladi:

1. *Leksik kalka* – tarjima tilida asliyatdagi qoidalar bo'yicha yasalgan so'zlar;

Misol qilib ingliz tilidagi *airoport, airship, motel, e-ticket* kabi so'zlar shu turga mansub hisoblanadi.

2. *Semantik kalka* – so'zning chet tiliga ma'nosi ta'siri bilan paydo bo'lgan ifodasi

3. *Frazeologik kalka* – chet tilidagi birikmani qismlarga bo'lib tarjima qilish

Quyida keltirilgan gapni misol sifatida ko'radigan bo'lsak: "*Call my father a lion-armed man*"

(*Sherpanja deb otamni aytishsin*) [6] bunda tarjimada kalkalash usulidan ya'ni so'zma-so'z tarjima qilish usulidan foydalanilgan. Bunday usulda muqobil so'zlarning asliyat ma'nolari ma'lum ma'noda saqlab qolinadi. [1]

Kalkalash usuli tarjimada eng ko'p foydalaniladigan va qulay bo'lgan usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday usulda tillarda mavjud bo'lmagan tushunchalarni tarjima qilinayotgan til doirasida ifodalash samarali hamda faol usul sifatida tarjimonlar tomonidan qabul qilingan. Ayrim xorijiy tillarga xos so'zlar, atamalar borki ularni umuman tarjimada qo'llab bo'lmaydigan hollar ham uchraydi. Chunki ayrim so'zlar boshqa bir millatning tili va madaniyatiga to'g'ri kelmay qolishi mumkin. Bunda tarjimonlardan o'sha so'zlarni "*tushirib qoldirish*" (zero translation) usulidan foydalanish talab etiladi. Tarjimonlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash hamda tasvirlash usullaridan ayrim millatga xos so'zlarni foydalanishga muhtojlik sezmaganda, ya'ni ularni tarjimada qo'llash kerak emas deb hisoblagan paytda "*tushirib qoldirish*" (zero translation) usulidan samarali foydalanadilar.

Yuqoridagi usullardan tashqari tarjimonlar tarjimada o'zlariga qulay bo'lgan boshqa usullardan ham foydalanishadi. Bulardan **transfer** metodi bo'lib unga ko'ra so'zlar hech qanday o'zgarishsiz olinadi. Bunday usulni asosan ma'lum sohaga xos atamalarni tarjima qilinganda. Bunday atamalar kamdan-kam holatlarda qo'llanilganligi sababli, ular o'z ma'nolarini yo'qotmagan holda tarjimada ishlatiladi. Bularga *menu*, *dacha*, *motel* so'zlarini misol sifatida keltirish mumkin. Transfer usulida olingan so'zlar bora-bora tarjima qilinayotgan til va xalqning kundalik ishlatiladigan leksikasidan joy egallaydi va ularni to'raligicha tarjimada o'zlashtirib olinadi. Bunday hollarni o'zlashgan so'zlar tarkibida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Tilning taraqqiy etishi hozirgi kunga kelib har bir xalqning lug'at boyligi oshirishga xizmat qilmoqda va yangi neologizmlarning shakllanishini yuzaga keltirmoqda.

Xulosalar. Xulosa qilib aytganda, tarjimonlardan badiiy asarlarni o'quvchi-kitobxonlarga milliylik ruhini yo'qotmagan holda, o'sha davr muhitini aniq va tushunarli qilib yetkazib bera olish katta mas'uliyat talab qiladi. Har bir tarjimon tarjima usullaining qaysi vositasida foydalanganda ham milliy koloritni yo'qotmasligi lozim. Bunda tarjimada tanlanayotgan usulning aynan mos kelishi hamda berilgan matnning uslubiy va janr xususiyatlaridan kelib chiqib tarjima qila olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimada til almashishi mumkin, ammo milliylik yo'qolmaydi va o'z aslini saqlab qolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.Abdurahmonova, Z.Sodiqov Tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at ma'lumotnomasi(o'zbek, olmon, ingliz, rus tillari) –Namangan: 2017. -39 bet
2. E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti.- Toshkent. 2012.- 78 bet
3. H.Hamroyev Milliy xos so'zlar- realiya va badiiy tarjima// Tarjima madaniyati(maqolalar to'plami).- Toshkent.: 1983.- 158bet
4. N.Komilov. Bu qadimiy sanat. – Toshkent : Adabiy meros, 2000,-109 bet
5. P.Qodirov. Starry nights Babur –Samarqand.: 2019.- 3bet
6. P.Qodirov. Yulduzli tunlar – Toshkent.: 2018.-4 bet
7. G'.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent.: O'qituvchi. 1978.
8. G'. Salomov Tarjima nazariyasi asoslari – T.,.: O'qituvchi. 1983.-127 bet
9. Q.Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari" – Toshkent.: Sharq, 2005
10. Q.A'zamov Mehrobdan chayon. – Toshkent.: 1991.- 156 bet
11. В.В.Воробьев Лингвокультурологическая парадигма личности.-Москва.: Дружбы народов, 1996.-170с

UO'K 81.33

RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING BIR TILLI LUG'ATLARDA BERILISHI MASALALARI

Z.X.Egamnazarova, o'qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz

Annotatsiya. Ushbu maqola terminologiya va leksikografiyaning umumiy masalalari, lug'at maqolasining ingliz va o'zbek tillarida tuzilishi, terminologik va izohli lug'atning farqlari va o'xshash jixatlari hamda rieltorlik faoliyatiga oid terminlarning bir tilli lug'atlarda izohlanish masalalariga bag'ishlanadi.